

O'ZBEK VA TURK TILLARIDA OLMOSH SO'Z TURKUMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Maxramova Feruza

Temirova Mahliyo

Rajabova Mo'jiza

O'zbek filologiyasi fakulteti talabalari

Annatsiya: mazkur maqolada o'zbek va turk tillaridagi olmosh so'z turkumi qiyosiy o'rganildi. Olmosh so'z turkumining o'ziga xos xususiyatlari va farqli tomonlari tahlil qilindi. O'zbek tili va turk tilidagi olmoshlar qiyoslangan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, turk tili, qardosh tillar grammatikasi, olmosh so'z turkumi, kishlik olmoshi, ko'rsatish olmoshi, o'zlik olmoshi, gumon olmoshi, bo'lishsizlik olmosh, so'roq olmoshi

Turkiy tillar morfologiyasi, xususan, so'z turkumlarining leksik-semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini ilmiy asosda tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilshunosligida olmoshlar deb yuritiluvchi mustaqil so'z turkumi turk tilida "zamirler yoki adillar" deb nomlanadi. Biz bugun ayan ikkala qardosh xalqlar tilshunosligida olmosh so'z turkumini qiyislaymiz va grammatikasi o'rtasidagi farqni ko'rib chiqamiz.

Olmoshni lo'nda qilib ta'riflaydigan bo'lsak, otga o'xshash, lekin ot, sifat va ravishlardan farqli o'laroq o'ziga xos so'z turkumidir. Bu xususiyat va farqliliklarni olmoshlar ega bo'lgan quyidagi olti xususiyatlarga ko'ra ajratish mumkin :

1. Ma'no
2. Kenglik
3. So'z yasash
4. Egalik
5. Turlanish

6. Yordamchi so'zlarga bog'lanish

Olmosh ma'noga ega bo'lmasligi bu uning ot so'z turkumidan farqlanuvchi yana bir tomoni desak mubolag'a bo'lmaydi. Olmoshlar, masalan, kalem(ruchka,qalam), kitap(kitob), defter(daftar), su(suv),toprak(tuproq) kabi bir predmetning nomlati emas, hamda bir borliq narsani bildirmaydi. Olmoshlar predmetlarni faqat ko'rsata oladi. Turk tilshunoslari qisqa va obrazli qilib olmoshlarni "aktyor"so'zlar deb ta'kidlashadi.

O'zbek va turk tillaridagi olmoshlarning nomlanishini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

O'zbek tili	Turk tili
Kishlik olmoshi	Şahıs zamiri
O'zlik olmoshi	Dönüşlülük zamiri
So'roq olmoshi	Soru zamiri
Ko'rsatish olmoshi	işaret zamiri
Gumon, bo'lishsizlik olmoshlari	Belirsizlik zamiri

Kishilik olmoshi	Men,sen,biz,siz,u	Ben,sen, biz, siz,o
O'zlik olmoshi	O'z, o'zi o'zingiz	Kend,kendi,kendisi, kendiniz
Soroq olmoshi	Kim,nima qayer,qanday qaysi, nechta	Kim,ne, nere,nasıl,hangi,kaçta
Ko'rsatish olmoshi	Bu,shu,u mana,ana	Bu,şu,o,işte
Gumon,bo'lishsizlik olmoshi	Kimdir,qanchadir,hech kim,hech nima	Kimse,bir kaç,hiç kim, hiç ne

Turkiy tillarda olmoshlarning yettita ma'no turi mavjud.

Olmosh turlari :

1. Kishilik ozarb. man, san, onlar; olt. bes (bester), sler, olor; boshq.

olmoshlari: bis, his; qoz. bizder, sizder; tuv. bis (bister// bistarlar)\ chuy.ebe (shev. ep//yep, eze (shev.es//yes), wal (shev. mi, u, ul wo, o, olj, ebb: ezir,wezem (shew uzem//ozem// e:em); shor is, sler; yoq. min, en, kihi, bihigi //bihi, ehigi //ihi. kihiler;

2. Ko'rsatish qoz., q.-qalp., no'g'. bn (I), ol; boshq. ese. Sul; yoq. subu

olmoshlari: (ushbu), siti (ana shu), sol (shu); no'g'. su, so (I), sosn// sitsit//sisi; tat. susi// sul; karaim. uspu// itsbu// uspu; qoz. O'zlik olmoshi : tuv. bochim, bodwj, boduwus, bottamvis, bodiujar, bottarnjar; bottan; yoq. beye, beyem, beyen; shor. boy; turk., gag. kendi;

So'roq olmoshlari: ozarb. kim, ne, hansi; boshq. ney. nerze, neyerde, nemerze, neyetta, nimkay, nerdekay, nintay; xak. kem, xciydag, xayzi; chuv. kam, xaje; shor. kem, kay// kayi, kayzi; yoq, kim, xannik, xctydax;

Belgilash olmoshlari: ozarb. vai; vari, hamu; olt. barcan, bar sin, parcan; q.- balq. bari, bitav; xak. pudun; shor. parcha, parcin, toza; yoq. barita.

Bo'lishsizlik olmoshlari: ozarb. hec kes, hec ne, hec hansi; olt. es neme; boshq. his kim, his ne; gag. hie bisay; qoz. esbir, eskim, esbirov, esteme; qirgb eñ kim, ec bir; q.- balq. bir zamda.

Gumon olmoshlari : gag. bisey, q.-balq. bir kisi, bir zot, biryuk; xak. pir kizi; turkm. bir nerse, birxayz. Olmoshlar fikrni ixcham shaklda ifodalashda, o'rinsiz takroni bartaraf etishda ahamiyatli. Masalan: o'zbek tilida: Asilbek kitob o'qidi va Asilbek ishga ketdi (turk tilida: Asilbek kitap okudu. Asilbek işe gitti) bu gapda Asilbek ismi takror-takror kelgan va gapning mazmunida, ma'nosida g'arazlikni va takroriylikni yuzaga keltirgan. O'zbek tilida: Asilbek kitob o'qidi va ishga bordi. (turk tilida: Asilbek kitap okudu ve işe gitti.

Bu gapimizda esa hech qanday o'rinsiz takror yo'q, ma'nosi va mazmuni aniq, qisqa va lo'nda tuzilishga ega. Olmoshlarda maxsus so'z yasovchi qo'shimchalar yo'q. Qadimgi turkiy til materiallari olmoshlar egalik qo'shimchalari va fe'ning shaxs-son qo'shimchalari bilan genetik bog'liqligini tasdiqlaydi. Barcha turkiy tillarda olmoshlar yagona turlanish tizimiga ega. Turk tilidagi ko'rsatish olmoshlari haqida gapiradigan bo'lsak, ular quyidagilar : bu, şu, o, bunlar, şunlar. Bu(bunlar) yaqinni, şu(şunlar) o'rtacha yaqinlikni, o (onlar) esa uzoqlikni ko'rsatib ishora qilib ko'rsatadi. Turk tilida o'sha olmoshlarning ko'plik shakllarini bermoqchi bo'lsak, -ler(-lar) qo'shimchasidan oldin -n tovushi orttiriladi: bu-n-lar, şu-n-lar. Va yana bu olmoshlarga qo'shimcha qiladigan bo'lsak, bura, şura, ora kabi olmoshlar mavjud bo'lib, ushbu olmoshlar yo'nalishni ifodalovchi shakllarga o'xshaydi, lekin bu hali aniq xulosa emas, sababi hali bir to'xtamga kelingani yo'q. Olmosh turlaridan bo'lgan so'roq olmoshi haqida gapiradigan bo'lsak, ushbu olmosh turi predmetlarni so'roq ma'nosida ko'rsatuvchi shakllardir va predmetlarni so'rashda 2 xil so'roq olmoshi qo'llanadi: kim, ne(kimler, neler). Kim so'roq olmoshi turk tilida ham va o'zimizda ham insonga nisbatan ishlatiladi. Masalan: Kim geldi?(Kim

keldi?) Kim keliyor?(Kim keladi?)kabilar. Kim so'roq olmoshi hamile,için,gibi kabi yordamchi so'zlarga qaratqich kelishigi qo'shimchasi vositasida bog'lanadi: kimin gibi, kimin için. Lekin bir narsani ham aytib o'tishimiz kerakki, og'zaki nutqda kim-le va kim için shakllari to'g'ri emas.osi, sol;

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. Abdurasulov** Turkiy tillarning qiyosiy tarixiy grammatikasi o'quv qo'llanmasi“Fan” nashriyoti. Toshkent - 2004
- 2. Axmedov Atoulo Raxmatovich** TURKIY TILLAR QIYOSIY-TARIXIY GRAMMATIKASI O‘QUV QO‘LLANMA BUXORO – 2024 "DURDONA" nashriyoti
- 3. Dilarom Babaxanova** TURKIY TILLARNING QIYOSIY-TARIXIY GRAMMATIKASI
- 4. Dadaboyev H, Xolmanova Z.** Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. Toshkent - 2015
- 5. Rafiyev A.** Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi(o‘quv qo‘llanma). Toshkent – 2004
- 6. Sodiqov Q.** Ajdodlar bitigi. “Fan” nashriyoti. Toshkent – 1990
- 7. Aliyev A, Sodiqov Q .** O‘zbek adabiy tili tarixidan. “O‘zbekiston” nashriyoti. Toshkent – 1994
- 8. Mahmudov N.** Yozuv tarixidan qisqacha lug‘at ma’lumotnoma. Toshkent -1990
- 9. Qayumov A, Sodiqov Q, Otaxo‘jayev A, Is’hoqov M.** Qadimgi yozma yodgorliklar. “Yozuvchi” nashriyoti. Toshkent - 2000
- 10. Rahmonov N. Turk xoqonligi.** Abdulla Qodiriy nomidagi Xalqmerosi nashriyoti – 1993
- 11. Xudoyberganova Z, Hamidov X.** Turk tilining nazariy grammatikasi. Toshkent – 2015